

Date: 1st November-2025

**ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI JINOYATLARNING
KRIMINOLOGIK JIHATLARI**

Fatulloev Dilshod Po'lotovich

Abu Rayhon Beruniy universiteti

Huquqshunoslik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrası o'qituvchisi,



Hozirgi davrda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi nafaqat milliy, balki global miqyosda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Insoniyatning iqtisodiy faoliyati, sanoatning jadal rivojlanishi, tabiiy resurslardan me'yoridan ortiqcha foydalanish, shuningdek, ekologik ong va madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida tabiatga salbiy ta'sir kuchaymoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid huquqiy me'yorlarning buzilishiga, ya'ni ekologik jinoyatlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar jamiyat, davlat va inson manfaatlariga bevosita tahdid soladi. Shu boisdan, mazkur turdagi jinoyatlarning kriminologik jihatlarini o'rganish — ularning sabablari, shaxsiy omillari, ijtimoiy sharoitlari, oldini olish mexanizmlarini tahlil qilish — dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega masaladir.

Ekologiya sohasidagi jinoyatehilik o'zining demografik, ekologik, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan salbiy oqibatlarining og'irlik darajasiga ko'ra bugungi kunda milliy xavfsizlikka real xavf tug'diradi. Bu xavf quyidagi holatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi [1]:

- yashash muhiti hayotning davomiyligi pasayishiga, kasallanish, o'lim hollarining ko'payishiga va aholi genofondining zaiflashuviga sabab bo'ladigan darajada yomonlashuvida;
- ekologik tanglik hududlarining yuzaga kelishida;
- tiklanmaydigan tabiiy resurslar (mineral xom ashyo, uglevodorodli energiya manbalari)ning kamayishida;
- yirik texnogen halokatlar yuz berish xavfining oshishida;
- er ustidagi hamda sizot suvlar sifatining yomonlashuvida;
- radioaktiv ifloslanishning tarqalishida;
- havo havzasining ifloslanishi hamda iqlimning xavfli darajada o'zgarishida;
- oziq-ovqat mahsulotlari xavfli darajada ifloslanishida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshqa sohalar singari bugungi kunning nafaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida global muammolardan biriga aylangan ekologiya sohasidagi yechimini kutayotgan muammolarga ham alohida e'tibor qaratib, "Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham jiddiy ekologik muammolar paydo bo'lmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho'llanish, suv yetishmasligi, qurg'oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash shular jumlasidandir [2]" , - deya ta'kidladi.

Date: 1st November-2025



Ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni tabaqalashtirish ham muhim kriminologik ahamiyatga ega. Bunday huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Huquqni qo'llash amaliyotining tahlili jinoiy javobgarlik choralari asosan tabiiy resurslarni g'ayriqonuniy qo'lga kiritish bilan bog'liq jinoyatlar uchun qo'llanilishidan dalolat beradi. Atrof tabiiy muhitga zarar yetkazish hamda aholining ekologik xavfsizligini buzuvchi jinoyatlar (suv havzalari, atmosfera havosini ifloslantirish) uchun jinoiy javobgarlik o'rnatuvchi normalar juda kam qo'llaniladi.

Har bir jinoyat ishlari bo'yicha tergov jarayonini samarali olib borish uchun tergovchi va surishtiruvchilarga, avvalo, tergov qilinayotgan turdagi jinoyatlarning batafsil kriminalistik tavsifini bilish talab qilinadi. Bu haqda prof. G.Abdumajidovning fikrlariga e'tibor qaratish o'rinlidir: "Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi jinoyat va jazo to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan ijtimoiy jihatdan xavfli g'ayrihuquqiy qilmishlarning ko'rib chiqilayotgan turlari eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlardan hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimidan iborat bo'ladi. Kriminalistik tavsiflarni bilish jinoyat ishlarini tez, har tomonlama va xolisona tergov qilishni tashkil etish uchun zarurdir" [3]

Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlarni kamaytirish uchun, jinoyatchilikning oldini olish, ekologik ta'lim va ekologik huquqni rivojlantirish zarur. Kriminologik tadqiqotlar, ayniqsa, atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan yuridik normativlarning samarali amalga oshirilishi va ijtimoiy ongni shakllantirishga yo'naltirilgan choralarni ilgari surish lozimligini ko'rsatadi. Natijada, atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha kriminologik yondashuvning samarali amalga oshirilishi faqatgina ekologik jinoyatlar miqdorini kamaytiribgina qolmay, balki yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu o'z navbatida jamiyatda atrof-muhitga nisbatan hurmatni oshirishga hamda ekologik huquqni kengroq targ'ib qilishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kriminologiya. Mas'ul maharrir: M.H. Rustambaev /O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: «Adolat», 2007.216 bet
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr.
<https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yiluchun-murojaatnomasi>
3. Интернет: www.law.isv.ru
4. Kriminologiya: darslik/ S.S.Niyozova ,N.S.Salayev. – T.:TDYU nashriyoti, 2023-y.
5. www.lex.uz